

QASHQADARYO VILOYATI ARXEOLOGIK YODGORLIKLARI (KITOB, SHAHRISABZ VA QARSHI).

Xaydarov Asliddin Omon óg'li

Shahrisabz pedagogika instituti Tarix kafedrası

Ijtimoiy – gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (Tarix) yo'nalishi

I kurs magistranti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatining Kitob, Shahrisabz (Qadimgi Kesh) va Qarshi (Nasaf) kabi hududlarida mavjud arxeologik yodgorliklar va ularning tarixiy ahamiyati, bugungi kunda saqlanishi, haqida ba'zi mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Kitob, Shahrisabz (Qadimgi Kesh) va Qarshi (Nasaf) Odina masjid", "Abu Ubayda bin al Jarroh", "Ko'kgumbaz masjid", "Hazrat imom Muin", "Shayxon ota Hulvoyi", "Shayx Ali", "Shayx Shibliy", "Abu Turob Naxshabiy", "Imom Muhammad Hanafiy", "Ko'k to'nli ota".

Kitob, Shahrisabz (Qadimgi Kesh) va Qarshi (Nasaf) kabi hududlar Qashqadaryo vohasining eng muhim arxeologik va tarixiy maskanlaridir. Ular qadimgi Sug'dning yirik shahar markazlari bo'lib, ilk temir davridan o'rta asrlargacha bo'lgan savdo yo'llari, hunarmandchilik, mudofaa inshootlari va me'moriy yodgorliklar (Uzunqir, O'rta qo'rg'on, Yangiqo'rg'on, Chim devori) bilan boy. Qashqadaryo arxeologik-topografik ekspeditsiyasi (QATE) tomonidan bu hududlarda keng qamrovli tadqiqotlar olib borilgan.

Qashqadaryo arxeologik-topografik ekspeditsiyasi (QATE), Kesh arxeologik-topografik ekspeditsiyasi — Qashqadaryo vohasidagi tarixiy arxeologik yodgorliklarni o'rganish, tarixiy davrlarni o'rganish hamda arxeologik materiallar to'plash maqsadida tashkil etilgan ilmiy ekspeditsiya (1963). QATEga 1963-1986-yillar M.Ye. Masson, 1986—1993 yillar Z.I.Usmonova, 1993-1998 yillar A.S.Sa'dullayev va 1999-yildan R.X.Sulaymonov rahbarlik qilgan. QATE tomonidan hozirgacha Qashqadaryo vohasidagi 600 dan ortiq turli tarixiy davrlarga mansub yodgorliklar o'rganilib chiqildi. Ular ichida Janubiy Sug'dning yirik shahar markazlari (Uzunqir, Kitob, Shahrisabz,

Naxshab, Nasaf, Qarshi), qadimiy o'troq dehqonchilik makonlari, qadimiy davr va o'rta asr savdo yo'llari, hunarmandchilik ustaxonalari, me'morlik yodgorliklari, mudofaa inshootlari va qo'rg'onlari (O'rta qo'rg'on, Yangiqo'rg'on, Chim mudofaa devori va boshqalar) bor.

QATE tomonidan Qashqadaryo vohasida olib borilgan tarixiy-arxeologik tadqiqotlar natijalari "Stolichnme goroda v nizovyx Kashkadari s drevneyshix vremyon", "Goroda yujnogo Sogda v VIII—XII vv.", "O'rta Osiyoning qadimgi davr va o'rta asrlar arxeologiyasi" (to'plam), "Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda", "Qadimgi O'rta Osiyo tarixi", "Qadimgi Kesh — Shahrisabz tarixidan lavhalar" (monografiya), "O'rta Osiyo arxeologiyasi", Shahrisabz. Ming yilliklar merosi" (yubiley albomi) kabi ilmiy va ilmiy ommabop asarlarda o'z aksini topdi.

Qashqadaryo viloyati hududida mavjud bo'lgan eng mashhur tarixiy obyektlar sirasiga: Qarshi shahrida "Odina masjid", "Abu Ubayda bin al Jarroh", "Ko'kgumbaz masjid"; Qarshi tumanidagi "Hazrat imom Muin", "Shayxon ota Hulvoyi", "Shayx Ali", "Shayx Shibliy", "Abu Turob Naxshabiy", "Imom Muhammad Hanafiy", "Ko'k to'nli ota"; Kasbi tumanida joylashgan "Hazrat Sulton Mirhaydar", "Imom Muhammad Sadr Islom", "Murodbahsh ota", "Mirdevona"; Chiroqchi tumanida "Siypantosh qoya" rasmlari, "Kishmishtepa"; Mirishkor tumanidagi "Ishoq ota", Dehqonobod tumanidagi "Beli boyli ota". "Xojai pok"; Yakkabog' tumanidagi "Xoja ilg'or", "Xo'jabuzruk ota" "Tutak ota"; G'uzor tumanidagi "Mir Jandiy ota", "Musofir ota", "Zaynulodiddin"; Qamashi tumanidagi "Langar ota", "O'g'lonjon ota"; Shahrisabz shahridagi "Oqsaroy me'moriy yodgorligi", "Gumbazi sayyidon", Shahrisabz tumanidagi "Hazrati Sulton", "Shayx Arslonbobo ziyoratgohi", "Turk Tug'yon ziyoratgohi; Kitob tumanidagi "Hazrat Bashir", "Xo'ja Ilmkon" "Shayx Shamsiddin" maqbaralari, "Xo'ja Isporos masjidi (Oq suv ziyoratgohi)"; Muborak tumanidagi "Xoja Muborak", "Xoja Ro'shnoyi"; Koson tumanidagi "Yerqo'rg'on" yodgorligi, kabilardir. Ushbu obyektlar viloyat bo'ylab tarqoq holda joylashgan hamda turli davrlarga va madaniyatlarga xosligi bilan ajralib turadi.

Shu o'rinda viloyatdagi eng qadimiy arxeologik yodgorlik — Yerqo'rg'on haqida to'xtalib o'tish joiz. Vohaning qariyb uch ming yillik tarixini o'zida mujassam etgan

Yerqo'rg'on taniqli olim Rustam Sulaymonov tadqiqotlaridan so'ng bu joydan topilgan ishonchli arxeologik manbalar asosida Qarshi shahrining 2700 yilligini nishonladik.

Ma'lumki, Qarshi shahri qadimiy va boy tarixga ega. Shaharda davlat muhofazasiga olingan 25 ta arxitektura yodgorligi mavjud. Bu yerda qadimdan shaharsozlik rivoj topgani, yirik muhandislik inshootlari, bozorlar, bog'-rog'lar bo'lgani manbalardan ma'lum. Ammo ularning hammasi ham bizgacha yetib kelmagan. Saqlanib qolganlari esa Ko'kgumbaz, Odina jome masjidlari, Bekmir, Qilichbek, Xoja Abdulaziz madrasalari, sardoba, Abu Ubayda ibn Jarroh ziyoratgohi, qadimiy ko'prik, hammom va yana bir nechta madaniy meros obyektlaridir. Albatta, ularning har biri beqiyos tarixiy ahamiyatga ega.

Qarshi shahrining Chaqar mahallasida joylashgan Kulol masjidi esa XVIII asrda bunyod etilgan. Keyingi yillarda bu tarixiy joy ustaxona vazifasini bajargan.

Kitob tumanidagi qadamjolardan biri – Sohibqiron Amir Temurning piri Shoh Said Ne'matulloh ibn Abdulloh ibn Abdurahmon (1330). Bu ziyoratgoh tuman markazidan 23 kilometr uzoqlikdagi Mo'g'ul qishlog'ida joylashgan. Said Ne'matulloh islom olamidagi zabardast zotlardan bo'lib, so'fiylikning "Ne'matullohiya" yo'nalishi asoschisidir. Bu ta'limot Naqshbandiya tariqati kabi mashhurdir. Said Ne'matulloh arab va fors tillarida 400 dan ortiq turli masalalar yoritilgan yozishmalar bitgan va ularning 110 tasi bizgacha yetib kelgan. U kishi Mo'g'ul qishlog'ida 6 yil yashagan. Ayni paytda Said Ne'matulloh yashagan joy ziyoratgohga aylantirilgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Qashqadaryo vohasida qadimdan shaharsozlik rivoj topgani, yirik muhandislik inshootlari, bozorlar, bog'-rog'lar bo'lgani manbalardan ma'lum. Ammo ularning hammasi ham bizgacha yetib kelmagan. Yuqorida keltirilgan bir nechta yodgorliklarning o'ziyoq voha tarixi naqadar uzoq asrlarga tutashi, bu yerda ne-ne buyuk zotlar mangu orom olayotganidan darak beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni. PF-60-son. T., 2022-yil 28-yanvar. Manba: <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini yanada qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 112-sonli qarori. T., 2021-yil 1-mart. Manba: <https://lex.uz/docs/-5316745>
3. Веснина Т. Культурные места как бренд: опыт города и деревни [Cultural places as brand: experience of the city and village]. URL: http://www.gttp.ru-PC/pc_70.htm (data obrashcheniya 20.10.2017).
4. Сагдуллаев А. Қадимги Ўрта Осиё тарихи. Ўқув қўлланма. Т.:”Университет”, 2004.
5. Турғунов Б. Ўзбекистон антик маданияти. (Жанубий Ўзбекистоннинг қадимий маданиятидан лавҳалар). “Ўзбекистон”. Тошкент. 1976.
6. Safarov I. B. Geographical features of pilgrimage tourism (in the case of Kashkadarya region) //Экономика и социум. – 2023. – №. 2 (105). – С. 321- 324.
7. Сафаров И. Б., Халилов Н. Х. ЭКОНОМИКО-ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ГРАДОСТРОИТЕЛЬСТВА ВЕРХНЕ КАШКАДА -РЫНСКОЙ ОБЛАСТИ // Educational Research in Universal Sciences. – 2024.